

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKA O'QITISH METODIKASI

Qosimova Nargiza

Asaka tumani 48-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikalari, arifmetik material kursning asosiy mazmuni, o'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalari, matematika o'qitishdan kuzatilgan amaliy maqsad haqida to'liq bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *o'qitish metodikasi, logika, arifmetik material, ilmiy-tadqiqot metodi, kuzatish metodi, tajriba metodi.*

O'qitish metodi tushunchasi didaktika va metodikaning asosiy tushunchalaridan biri. Shunday qilib o'qitish metodlari o'zlashtirish, tarbiyalash va rivojlanish kabi uchta asosiy vazifani bajaradi.

1. Ilmiy-tadqiqot metodlari haqida ma'lumot Pedagogik tarbiyalashga oid ish tajribalarni o'rganmay va umumlashtirmay, pedagogik jarayonini chuqur tadqiq qilmay turib pedagogikani rivojlantirib bo'lmaydi. Zamonaviy ta'lim pedagogikani ilmiy bilishning umumiy metodi bilan qurollantiradi, lekin boshqa fanlar kabi pedagogikaning ham o'ziga xos tadqiqot usullari mavjud. Ilmiy tadqiqot usullari - qonuniy aloqalar, munosabatlar o'rnatish va ilmiy nazariyalarni shakllantirish uchun ilmiy axborot olish usullari.

Kuzatish, tajriba o'tkazish, maktab hujjatlari bilan tanishish, o'rganish, suhbat va so'rovlar o'tkazish, ilmiy-pedagogik tadqiqot usullari. So'nggi paytlarda matematik va kibermetik usullardan, shuningdek, modellashtirish usullaridan foydalanish qayd etildi. Boshlang'ich sinf matematika o'qitish metodlari barcha pedagogik tadqiqotlarda qo'llaniladigan bir xil usullardan foydalanadi.

2. Kuzatish metodi. Kuzatish metodi - odatdagi sharoitda kuzatish natijalarini tegishli qayd qilish bilan pedagogik jarayonni bevosita maqsadga yo'naltirilgan holda idrok qilishdan iborat. Kuzatish metodidan o'quv-tarbiya ishining u yoki bu sohasidagi ishning qanday borayotganini o'rganish uchun foydalaniladi. Bu metod o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatlari haqida majbur qilinmagan tabiiy sharoitda aniq material to'plash imkonini beradi.

3. Tajriba - bu ham kuzatish bo'lib, maxsus tashkil qilingan, tadqiqotchi tomonidan nazorat qilib turiladigan va tizimli ravishda o'zgartirib turiladigan sharoitda o'tkaziladi. Pedagogik tajriba o'qitishning va tarbiyalashning u yoki bu usulining, ko'rsatma - qo'llanmalarining samaradorligini tadqiq qilishda qo'llaniladi.

Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi tadqiq qilinishi kerak bo'lgan masalalarni aniq ifodalab olishi, bunday masalalarni hal qilinishi maktab amaliyotida va pedagogika fani uchun ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Tajriba o'tkazishdan oldin tadqiqotchi o'rganish

predmeti bo'lib ish masalaning nazariyasi va tarixi bilan, shuningdek, shu soha bo'yicha amaliy ish tajribasi bilan tanishib chiqadi.

Matematika o'qitishdan kuzatilgan amaliy maqsad - o'quvchilar olgan bilimlarni, amalda qo'llay olishga o'rgatishdan iborat. Olingan bilimlarni sonlar va matematik ifodalar, nuqtalar ustida bajariladigan amallarga tatbiq qila bilish, har xil masalalarni yechishda foydalana bilishga o'rgatish. Bu bilimlarni kundalik hayotda uchraydigan masalalarni hal qilishga qo'llay bilishga o'rgatishdir.

Tadqiqotda ilmiy farazni o'rni katta ahamiyatga ega. Butun tajribani tashkil qilish ilmiy farazni tekshirishga yo'naltiriladi. U material to'plash imkonini beradi, tadqiqotchining aniq materialda chalkashib ketishiga yo'l quymaydi.

Matematika o'qitishda o'quvchilarning misol va masalalarni to'g'ri yechganligini tekshirish muhim ahamiyatga ega. Matematikadan bilimlarni tekshirishda faqat dastur talabiga yarasha u yoki bu bilimlarning o'quvchilar ongida bo'lishligini hisobga olmasdan, balki sifatini xarakterlaydigan quyidagilarni ham e'tiborga olish kerak. O'qitish metodlaridan, ta'limning yangi mazmuniga, yangi vazifalariga mos keladiganlariga ongli tanlab olish uchun oldin hamma o'qitish metodlarini tasniflashni o'rganib chiqish zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.Ahmedov M., Ibragimov P ., Abdurahmonova N ., Jumayev M .E . Birinchi sinf matematika darsligida metodik qo'llanma . - T .: "Uzinkomsentr", 2003, 96 - bet.
- 2.Jumayev E.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivoslantirish nazariyasi.-T.: "Ilm-Ziyo", 2005, 240-bet.
- 3.Jumayev M.E. Boshlang'ich matematika nazariyasi va metodikasi. -T.: "Arnaprint", 2005, 240-bet.
- 4.Jumayev M.E. va boshqalar. Matematika o'qitish metodikasi. - T.: "Ilm-Ziyo", 2003, 240-bet.
- 5.Bikboyeva N.U. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. T.: "O'qituvchi", 1996, 320-bet.
- 6.Tadjiyeva Z.G. Boshlang'ich sinflarda fakultatif darslarni tashkil etish. T.: 2005, 68-bet.